



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
Xolmatova Dilshoda Sherali qizi	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna	

ONA TILI DARSLARIDA O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRUVCHI MASHQ VA TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH

Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili darslarida o'qib tushunish ko'nikmasi ustida ishlashning ahamiyati xususida so'z yuritilgan. O'quvchilarda matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan. Ona tili darslarida foydalanish uchun mo'ljallangan matnlar va ular asosidagi savol-topshiriq namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: anglash, o'qib tushunish ko'nikmasi, matn, matn turlari, uslub, savol, topshiriq, tahlil.

Abstract: This article examines the importance of developing meaningful reading skills in native language lessons. It provides methodological recommendations for enhancing students' ability to work with text. Samples of texts designed for use in native language lessons are presented, along with examples of questions and tasks based on them.

Key words: comprehension, meaningful reading skills, text, text types, style, question, task, analysis.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность работы над навыком осмысленного чтения на уроках родного языка. Даются методические рекомендации по развитию у учащихся умения работать с текстом. Приводятся образцы текстов, предназначенных для использования на уроках родного языка, а также примеры вопросов и заданий на их основе.

Ключевые слова: осмысление, навык осмысленного чтения, текст, виды текста, стиль, вопрос, задание, анализ.

KIRISH

Psixolingvistik tadqiqotlardan ma'lumki, insonning til qobiliyati to'rt xil kognitiv malakaning o'zaro bog'liqligida rivojlanadi: eshitib tushunish, fikrini og'zaki bayon qilish, o'qib tushunish, fikrini yozma bayon qilish. Eshitib tushunish va gapirish og'zaki nutq shakli bilan bog'liq, o'qib tushunish va yozish esa tilning yozma shakli bilan. Eshitib tushunish va o'qib tushunish psixologik tomondan nutqni qabul qilish jarayoni, gapirish va yozish esa nutq yaratish jarayonidir.

O'qish eng muhim til ko'nikmalaridan biri bo'lib, u bir fikrni ikkinchisiga bog'lovchi, mazmunni aniqlashtiruvchi va to'ldiruvchi vosita, berilgan ma'lumotni o'qishgina emas, maqsadni tushunish va qayta ishlash lozim bo'lgan jarayon hisoblanadi.¹

Ona tili darslarida o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasi ustida ishlash asosiy vazifalardan biri sanaladi. Chunki ona tili fani o'quvchini tilga oid bilimlar bilan qurollantirish bilan birgalikda boshqa fanlarni o'zlashtirish uchun ko'prik vazifasini ham bajaradi. O'quvchida turli uslub, mavzudagi matnlarni anglash ko'nikmasi qay darajada yaxshi rivojlansa, aniq, tabiiy va gumanitar fanlar doirasidagi mavzular ham shunchalik yaxshi o'zlashtiriladi.

Bugungi kunda ona tili darslarida o'qib tushunish ko'nikmasi ustida ishlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Ona tili" darsliklarida mazkur ko'nikmani rivojlantirish maqsadida rang-barang matnlar va bir qator topshiriqlar berilgan.

Manbalarda matnni o'qib tushunish malakasini egallashga qaratilgan quyidagi tartibdagi metodik ishlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. O'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajalarini inobatga olgan holda matn tanlash (O'zbekistondagi gazeta, jurnal va boshqa manbalardan matnlar tanlanadi. Tarjima qilingan matnlar tanlanmaydi. Matndagi so'zlar sonini o'quv yili davomida bir xil hajmda belgilab olish lozim).

1 Sharopova F. Ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari. Ped. fan. dok. (PhD)...diss. – Toshkent, 2025. – 14-b.



2. Matnning xususiyatidan kelib chiqqan holda topshiriq shaklini aniqlash.
3. Topshiriqlarni ishlab chiqish.
4. Mustahkamlash darslarining 20 daqiqasini o'qib tushunish mashqiga ajratish.
5. Matnni o'qib tushunishga qaratilgan sinovni o'tkazish.
6. Javoblarni taxminan belgilamaslik hamda bir-biridan ko'chirmaslikka e'tibor qaratish (bunday yondashuv vaziyatni real baholashda juda muhim).
7. Natijalarni tahlil qilish hamda umumiy xulosalar chiqarish.
8. O'tkazilgan sinovlar monitoringini olib borish².

O'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish uchun matnning to'g'ri tanlanishi muhim ahamiyatga ega. Tanlangan matn o'quvchi yoshiga mos, qiziqarli, uslub talablariga javob beradigan, yaxlit hamda mazmunan tugal bo'lishi lozim. O'quvchida turli matnlarni tushunish ko'nikmasini shakllantirish uchun matnlarning turli uslublariga mansub bo'lishiga e'tibor qaratish zarur. Masalan: she'r, hikoya, qissa, romanlardan parchalar (badiiy uslub), gazeta, jurnallardagi axborotlar, yangiliklar matnlari, intervyu, reportajlar (publitsistik uslub), ensiklopediyalarda hamda jurnallardagi ilmiy-ommabop yo'nalishdagi maqolalar (ilmiy-ommabop uslub), turli yozishmalar, ijtimoiy tarmoqlardagi izohlar matnlari (so'zlashuv uslubi) va boshqalar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish masalasi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Psixologiya olimi I.A. Zimnyaya o'qib tushunishni nutq faoliyatining murakkab turi sifatida baholab, uning mazmunni anglash, tahlil qilish va talqin etish bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. J. Bruner esa o'quvchining matnni tushunishi avvalgi bilimlar va yangi ma'lumotlar o'rtasidagi bog'lanish asosida shakllanishini qayd etadi.

Mahalliy tadqiqotchilardan Asilova G. va Achik F. nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda matn bilan ishlashning ahamiyatini yoritib, o'quvchilarning o'qish va anglash faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalarni ishlab chiqqanlar. Sharopova F. esa ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslarini tadqiq etib, matn tanlash, topshiriqlar tizimini yaratish hamda natijalarni monitoring qilishning ilmiy asoslarini ko'rsatib bergan.

Tahlil qilingan tadqiqotlarda asosan o'qib tushunish ko'nikmasining nazariy asoslari, matn bilan ishlash metodlari va topshiriqlar tizimi yoritilgan. Mazkur maqolada esa ona tili darslarida o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy mashq va topshiriqlar namunalari tahlil qilinishi, ularni ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari yoritiladi. Shu jihatdan tadqiqot mavzuning amaliy yo'nalishini kuchaytirishi bilan avvalgi ishlardan farqlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Quyida o'qib tushunish malakasini rivojlantirishga qaratilgan matn va ular asosidagi topshiriqlardan namunalari berilgan. Mazkur matnlar hajman kichik va topshiriqlar bilan ishlash ko'p vaqtini olmaganligi sababli, ona tili darslarida asosiy mavzuga qo'shimcha topshiriq sifatida qo'llab ketish mumkin. Birinchi matn sof publitsistik uslubda, asosan, fakt va aniq ma'lumotlar bilan tanishtirishga mo'ljallangan. Ikkinchi matnda esa his-tuyg'ular tasviriga ko'proq e'tibor qaratilgan.

1-matn

Time jurnali 15 yoshli ixtirochini "Yil bolasi" deb topdi

Time jurnali o'z tarixida birinchi marta "Yil bolasi"ni tanlab oldi. Bu yo'nalish ekofaol Greta Tunberg sharofati bilan yuzaga kelgan: u 2019-yilda jurnal tomonidan "Yil odami" deya e'tirof etilgan birinchi o'smirlarga aylangan edi. Time uning tengdoshlari va undan kichik bo'lganlar uchun ataylab yangi yo'nalishni joriy etishga qaror qildi.

Denverlik Gitanjali Rao bir necha sohalarda, shu jumladan ichimlik suvini topishda yordam beruvchi qurilma, kiber-bezorilikni sun'iy ong yordamida aniqlovchi mobil ilova ixtiro qilib, jamoatchilik nazariga tushgandi.

Gitanjalining aytishicha, u boshqalarni dunyo miqyosidagi muammolarga yechim topa olishga ilhomlantirishni istaydi. Gitanjali 5000 nafar amerikalik bolalar orasidan 5 finalchi tanlab olingan tanlov g'olibi bo'ldi.

U va qolgan to'rt finalchiga juma kuni TV orqali mukofotlar topshiriladi. Aktrisa va gumanist Anjelina Joli bilan suhbatda Rao shunday deydi: "Men siz ko'rgan olimlarga o'xshamayman, TVda men ko'rib o'rgangan

2 Mavlonova K. O'quvchilarda matnni o'qib tushunish malakasini shakllantirish. Global ta'lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2020. – 149-150-b.

olimlar odatda kekxa oq tanli erkak bo'ladi. Maqsadlarim o'zgardi. Endi men nafaqat muammolarga yechim topish, balki odamlarni ham ilhomlantirishni istayman. Tajribamdan kelib chiqqan holda o'zingga o'xshagan odam yo'qligini ko'rish oson emas. Binobarin, men shuni qila oldimmi, siz ham qila olasiz, har kim qila oladi, demochiman".

Time jurnali 1927-yildan "Yilning faxrli insoni"ni aniqlashni yo'lga qo'ygan. Keyinchalik u "Yil odami"ga o'zgardi. Mana endi "Yil bolasi" nominatsiyasi ham joriy etildi. O'tgan yili Greta Tunberg 16 yoshida "Yil odami" bo'lgan eng yosh laureat bo'lgandi. (daryo.uz)

1. Berilgan ma'lumotlarni matn asosida to'g'ri yoki noto'g'riga ajrating.
 - a) Gitanjali Rao Hindistonda tug'ilib voyaga yetgan;
 - b) Greta Tunberg 15 yoshida "Yil odami" bo'lgan edi;
 - d) Greta Tunberg mobil ilovalar yaratish bo'yicha mashhurlikka erishgandi;
 - e) "Time" jurnali 2019-yildan beri "Yil bolasi" nominatsiyasi bo'yicha laureatlarni tanlab oladi;
 - f) Gitanjali Rao mahalliy muammolarga yechim topishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.
2. Gitanjali Rao Anjelina Joli bilan suhbatda "Men siz ko'rgan olimlarga o'xshamayman, TVda men ko'rib o'rgangan olimlar odatda kekxa oq tanli erkak bo'ladi" deganda nimani nazarda tutgan? Jamiyatdagi qanday qarash yoki qolipni (stereotipni) sindirmoqchi?
3. Maqolaga o'zgacha sarlavha tanlang.
4. Maqola mazmunini 3 ta jumla bilan ifodalab bering.
5. Gitanjali Rao nomidan intervyu tayyorlang.
6. Siz shu yoshgacha qanday yutuqlarga erishdingiz?

2-matn

Matnni o'qishdan avval quyidagi savollarga javob bering.

Quyidagi fikrni izohlang va o'z munosabatingizni bildiring: "Odamo'rlik – kannibalizm, besh asr avval barham topgan, deyдилar... Unday emas... Modomiki, yer yuzida urush balosi bor ekan, shuning o'zi odamxo'rlikdir" (O'. Hoshimov).

Ikkinchi jahon urushi dahshatlari, sabab va oqibatlarini haqida nimalarni bilasiz?

TAHLIL VA NATIJALAR

Rahmatli otamiz Normatov Boshbek Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi bo'lganlar. Bola edim. Otamiz odamni titratib yuboradigan bir voqeani onamizga gapirib berganlari hamon esimda.

– Vyazma yo'nalishidagi bir chog'roq shaharchani dushmandan ozod qildik, – deya gap boshladi otamiz. – Qahraton qish. Ikki qavatli yog'och uylar, ko'cha to'la o'liklar... Bir uyning ikkinchi qavatiga chiqsam, latta-puttalar uyumi yonida bir ayol o'lib yotibdi. Bitta ham dushman yo'q – qochib ketishgan, shekilli. Endi o'girilib ketmoqchi edim, o'lik yonidagi latta uyumi qimirlaganday bo'ldi. Ochib ko'rsam, yo qudratingdan, tirik chaqaloq o'lik onasini emib yotibdi!... Derazaga yugurib borib, pastdagi hamshirani chaqirdim. Zudlik bilan hamshira-yu vrachlar yetib kelishdi. Hayratlanarli joyi shundaki, murda sovuqda qotib qolgan bo'lsa ham, chaqaloq emayotgan ko'krak yumshoq va issiq edi, ikkinchisi qotib yotibdi! Harbiy vrachlar ham hayratda: odam o'lgandan keyin uzog'i bilan yigirma daqiqadan so'ng organizmidagi barcha a'zolar o'z faoliyatini to'xtatishi kerak-ku! Vrachlarning aytishicha, bu ayolning joni uzilganiga o'n kun, bo'lmaganda bir hafta bo'lgan ekan.

Hamshiralar tezda go'dakning tagligini almashtirishdi, qaytadan yo'rgaklab, shinelga o'rashdi. Oradan ko'p vaqt ham o'tgani yo'q, bir payt qaracak, hozirgina chaqaloq emib turgan qaynoq va yumshoq ko'krak ham ikkinchisiga o'xshab sovuqda qotib yotibdi. Xuddi jigargo'shasining ishonchli qo'llarga tushganidan hotirjam bo'lganday... Birov gapirib berganida ikki dunyoda ham ishonmasdim, o'z ko'zim bilan ko'rdim axir... – deb otamiz hikoyasini tugatdilar.

Nima bu? Bu ne sinoat, ne mo'jizaki, ona o'lganidan keyin ham yuragining bir parchasiga ummon qadar mehr, osmon qadar muhabbat sog'insa! Tabiat qonunlariga bo'ysunmaydigan, tibbiyot qonunlarini tan olmaydigan ona mehri oldida butun borliq ta'zimda. (Sharof Boshbekov)

Savol va topshiriqlar:

1. **So'zlovchi voqeani qanday hissiyot bilan hikoya qilib bergan?**
 - a) qo'rquv b) hayrat d) qayg'u e) afsus

**2. Quyidagi ma'lumotlarning qaysi biri matnda uchramaydi?**

- a) voqea Rossiya hududida sodir bo'lgan edi;
- b) ayolni fashistlar otib ketishgan edi;
- d) ayolning qo'shnilari go'dak holidan xabar olishmagan;
- e) go'dak ishonchli qo'llarga topshirildi;
- f) ayolning joni uzilganiga o'n kunlar bo'lgan edi;
- g) go'dak qattiq shamollagan edi;
- h) Boshbek ota voqeani o'z ko'zi bilan ko'rgan edi.

Matndagi "Xuddi jigargo'shasining ishonchli qo'llarga tushganidan hotirjam bo'lganday..." degan jumlaning qanday izohlaysiz?

Siz matn mazmuni va undagi asosiy g'oyadan kelib chiqib, unga qanday nom bergan bo'lardingiz?
Hikoya mazmunidan kelib chiqqan holda ona mehrini tasvirlovchi sifatlar yozing.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ko'rsatib o'tilgan matn namunalari orqali qisqa fursatda o'quvchilarning matn bilan ishlash ko'nikmalarini mustahkamlab olish mumkin. Bu turdagi kichik matnlar o'quvchini katta va murakkab matnlarga tayyorlab boradi. Shuningdek, ona tili darslarida matnlar bilan muntazam ishlab borish o'quvchida nafaqat o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga, balki ularda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishga, fanlararo integratsiyani ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asilova G., Achik F. Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari: uslubiy qo'llanma. – T.: "Publishing High Future", 2024.
2. Sharopova F. Ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari: ped. fan. dok. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2025.
3. Mavlonova K. O'quvchilarda matnni o'qib tushunish malakasini shakllantirish // Global ta'lim va milliy metodika: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2020.
4. Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi // Global ta'lim va milliy metodika: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.